
2024-yilning may oyidan boshlab elektr energiyasi va tabiiy gazga tariflar o'zgarishi munosabati bilan kam ta'minlangan oilalarga va ayrim toifadagi iste'molchilarga quyidagi ijtimoiy yordamlar ko'rsatiladi:

2024-yilning may oyidan boshlab elektr energiyasi va tabiiy gazga tariflar o'zgarishi munosabati bilan kam ta'minlangan oilalarga va ayrim toifadagi iste'molchilarga quyidagi ijtimoiy yordamlar ko'rsatiladi:

1□ 1-maygacha bo'lgan muddatda yoqilg'i-energetika resurslari narxlari oshishini hisobga olib, minimal iste'mol xarajatlari qiymatini qayta ko'rib chiqiladi.

✓ Bunda, 1 mlnga yaqin eng kam pensiya va nafaqa oluvchilarning pensiya va nafaqa miqdorlari minimal iste'mol xarajatlari qiymatidan kam bo'lmagan miqdorda qayta hisoblanadi.

2□ Aholining muhtoj qatlamlarini isitish mavsumida qo'shimcha ijtimoiy himoyasini ta'minlash uchun 2024-yil noyabrda "Ijtimoiy himoya yagona reyestri" axborot tizimi orqali bolalar nafaqasi va moddiy yordam tayinlangan oilalarga 270 ming miqdorda bir martalik kompensatsiya ajratiladi.

Ushbu kompensatsiya orqali, qariyb 1,5 mln. kam ta'minlangan oilalarning ijtimoiy himoyasi ta'minlanadi.

????Mazkur kompensatsiya "mahalla yettiligi" xulosalari asosida "Ijtimoiy himoya yagona reyestri"ga kirmagan qo'shimcha 200 mingdan ortiq muhtoj oilalarga ham to'lab beriladi.

Bunda, "mahalla yettiligi" tomonidan muhtoj oilalar ro'yxatlari uyma-uy yurgan holda shakllantiriladi.

3□ Elektr energiyasi va tabiiy gaz bo'yicha quyidagi miqdordagi iste'mol uchun bazaviy me'yordoirasidagi hamda bazaviy me'yordan oshgan narxlar o'rtasidagi farq kompensatsiya qilib beriladi:

????tabiiy gaz uchun - oyiga bazaviy me'yordan ortiq foydalanilgan 250 kub metrgacha;

????elektr energiyasi uchun - oyiga bazaviy me'yordan ortiq foydalanilgan 150 kVt soatgacha.

✗Ijtimoiy me'yordan ortgan iste'mol uchun kompensatsiya olish uchun ehtiyojmand oila "Inson" ijtimoiy xizmatlar markaziga ariza beradi va kompensatsiya keyingi oyda haqiqiy iste'molidan kelib chiqib to'lab beriladi.

Mazkur kompensatsiya to'lovlari O'zbekiston Respublikasining Davlat byudjeti mablag'lari hisobidan Ijtimoiy himoya milliy agentligi orqali to'lab beriladi.

2024-05-29 09:46:15